



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLAR ASOSIDA EKALOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19006351>

Suvanova Sevara Baxodir qizi

Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

ssuvanova466@gmail.com +998933274400

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar asosida ekalogik madaniyatini rivojlantirishda xorij tajribasi zaruriyat sifatida yoritilib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta'lim, katta yosh, rivojlantiruvchi markazlar, bola, ekalogiya, madaniyat, ijtimiy, pedagogika, o‘yin, texnologiya, STEM, atrof-muhit.*

BASIS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF DEVELOPMENT CENTERS

Suvanova Sevara Bakhodir qizi

Supporting doctoral student of the Kokand State University

ssuvanova466@gmail.com

+998933274400

Annotation. *This article highlights the socio-pedagogical necessity of improving the ecological culture of older preschool children in preschool educational organizations based on development centers.*

Keywords: *Preschool education, older age, developmental centers, child, ecology, culture, social, pedagogy, game, technology, STEM, environment.*



ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА БАЗЕ ЦЕНТРОВ РАЗВИТИЯ

Суванова Севара Баходир кызы

Аспирант Кокандского государственного университета

ssuvanova466@gmail.com

+998933274400

Аннотация. В статье подчеркивается социально-педагогическая необходимость повышения экологической культуры детей старшего дошкольного возраста в дошкольных образовательных организациях на базе центров развития.

Ключевые слова: Дошкольное образование, старший возраст, центры развития, ребенок, экология, культура, социальный, педагогика, игра, технология, STEM, окружающая среда.

KIRISH

Hozirgi davrda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashib borishi jamiyat oldiga tabiatga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'ladigan avlodni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlab qolish masalalari bugungi kunda ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois ekologik tarbiyani bolalik davridan boshlab shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish kelajak avlodning tabiatga nisbatan mas'uliyatli, ongli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tabiat hodisalarini faol kuzatadigan, tabiat jarayonlariga qiziqish bildiradigan hamda yangi bilimlarni tez o'zlashtiradigan davrda bo'ladilar. Shu

sababli aynan ushbu yosh bosqichida bolalarda ekologik tushunchalar, tabiatga nisbatan ijobiy munosabat va uni asrash ko'nikmalarini shakllantirish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, xususan rivojlantiruvchi markazlar faoliyatidan samarali foydalanish muhim omillardan biri hisoblanadi. Rivojlantiruvchi markazlar bolalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda bilim, ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu markazlar orqali bolalar kuzatish, tajriba o'tkazish, o'yin va ijodiy faoliyat jarayonida tabiat bilan bevosita tanishadilar. Natijada ularda ekologik tafakkur, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, hamda ekologik madaniyatning dastlabki elementlari shakllanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyaga



alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yevropa va Osiyo davlatlarida bolalar uchun ekologik burchaklar, tabiat markazlari hamda kichik tajriba laboratoriyalari tashkil etilib, bolalarning tabiat haqidagi bilimlari asosan amaliy faoliyat orqali boyitib boriladi. Ushbu ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy maktabgacha ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya jarayoni oiladan boshlanib, ota-onalar bolalarga xulq-atvor me'yorlarini shaxsiy namunalari orqali singdiradilar hamda ularda mustaqillik, ezgulik va yaxshilik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantiradilar. Maktabgacha ta'lim ijtimoiy munosabatlar, sog'liq va xavfsizlik, tilni o'rganish, atrof-muhit bilan tanishish hamda hissiyotlarni ifodalash yo'nalishlari asosida olib boriladi. Yaponiyada "Mottainai" (bekorga sovrmaslik) falsafasi asosida bolalarda resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va tabiatga hurmat ko'rsatish singari qadriyatlar tarbiyalanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chiqindilarni ajratish, qayta ishlash, ekosistema elementlari bilan ishlash (masalan, kompost tayyorlash, mini issiqxonalar yaratish) tajribalari keng joriy etilgan. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tashkilotlari nafaqat ta'lim beruvchi, balki ijtimoiy hamkorlik markazi vazifasini bajaradi. Bular bolalarga ekologik tarbiyani berishda muhim rol o'ynaydi.

"Ochiq muhit" konsepsiyasi. Bu konsepsiya orqali bolalarni tabiat bilan "yaqinlashtirish" maqsad qilingan: Darslar tabiatda o'tkaziladi: daraxt ekish, barg terish, qushlarni kuzatish. Ob-havo yomon bo'lsa ham, bolalar ko'p vaqtni ochiq havoda o'tkazadilar. Bu orqali bolalarda tabiatga hurmat, mas'uliyat va qadrlash tuyg'usi shakllanadi. Ekologik intizom milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllantiriladi. Yapon maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik g'oyalar kundalik faoliyatga integratsiya qilinadi: Axlatni ajratish va qayta ishlashni o'rgatish. Qayta ishlanadigan materiallardan foydalanib o'yinchoqlar yasash. Energiya tejash, suvni behuda sarflamaslik haqida oddiy qoidalarni bolalar o'zlashtiradi. Yaponiyada ekologik tarbiya faqat bolalar emas, balki ota-onalar ishtirokida olib boriladi: Maxsus seminarlar, ota-onalar bilan birgalikdagi ekologik ekskursiyalar. Oila a'zolari farzandlarining ekologik loyihalarida faol qatnashadilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. Bolalar kichik yoshidan boshlab tabiatni asrash, chiqindilarni saralash, suv va elektr energiyasini tejashga o'rgatiladi. Ushbu jarayonlar ko'pincha o'yin, kuzatish va amaliy mashg'ulotlar orqali tashkil etiladi. O'yin orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish O'yin bolalarda ijtimoiy va ekologik tajribani o'zlashtirishning asosiy vositasidir. Yapon bog'chalarida bolalar tabiat bilan



bevosita aloqada bo'lishi uchun maxsus yashil hududlar, mini-bog'lar tashkil etilgan. Bu esa bolalarda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimida ekologik madaniyatni o'yin orqali shakllantirish bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'yinlar orqali bolalar ekologik bilimlarni oson va qiziqarli tarzda o'zlashtiradilar hamda ularni kundalik hayotda qo'llashga odatlanadilar. Ushbu tajribani ta'lim jarayoniga joriy etish ekologik barqaror jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'yin va ekologik tarbiya integratsiyasi Rolli o'yinlar bolalarda ekologik muammolarni tushunish va hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Rangli plakatlar, interaktiv doskalar, multfilmlar orqali ekologik g'oyalar tushuntiriladi. Tabiiy materiallardan foydalangan holda hunarmandchilik mashg'ulotlari o'tkaziladi. Yaponiyada bolalar kundalik faoliyat orqali chiqindilarni ajratish va tejamkorlikka o'rgatiladi.

O'zbekistonda bu tajribadan qanday foydalanish mumkin?

1. Ochiq havoda ta'lim metodikasini rivojlantirish – maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik bog'lar, o'rmon burchaklari tashkil etish.

2. Ota-onalarni ekologik ta'limga jalb qilish – birgalikdagi tadbirlar, aksiyalar tashkil etish.

3. Tabiiy materiallardan foydalangan o'yin va mashg'ulotlar – bolalarda atrof-muhitga nisbatan estetik va axloqiy munosabatni shakllantirish.

4. Mahalliy ekotariyani yapon tajribasi bilan uyg'unlashtirish – milliy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda ekologik tarbiya olib borish.

Germaniyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Umweltbildung" (atrof-muhit ta'limi) dasturi asosida ekologik rivojlantiruvchi markazlar faoliyat olib boradi. Bolalar ekologik laboratoriyalar, tajriba bog'lari va mini-fermalar orqali ekologik muhitda bevosita tajriba orttiradilar. Germaniya bolalar bog'chalarida "Bildung für nachhaltige Entwicklung" (BNE – Barqaror rivojlanish uchun ta'lim) dasturi asosida ta'lim beriladi. Germaniyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga quyidagi qadriyatlar singdiriladi:

1. Qayta ishlash (recycling),
2. Energiya tejash,
3. Atrof-muhitni toza saqlash,
4. Mas'uliyatli iste'mol.

Germaniya va Yevropada qayta ishlash madaniyati bolalarda ekologik mas'uliyat chiqindilarni saralash va qayta ishlash orqali shakllantiriladi. Germaniyada interaktiv rivojlantiruvchi markazlar bu Ekologik laboratoriyalar, interaktiv ko'rgazmalar, tajriba bog'lari tashkil etilgan. Tajriba asosida o'rganish: Bolalar o'simlik ekadi, kompost tayyorlaydi, suvni tozalash tajribalarini o'rganadi. Oilaviy hamkorlik: Ota-onalar ekologik loyihalarda ishtirok etadi, ekologik odatlarni uyda davom ettiradi. Tarbiyachilar ekologik ta'lim bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslaridan o'tadi. Har bir pedagog



ekologik ong, tabiat bilan muloqot metodikasi, va barqaror rivojlanish yondashuvlarini bilishi shart. So‘nggi yillarda Finlyandiya, Shvetsiya, Yaponiya, Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta‘lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar ishlab chiqilgan. Ushbu mamlakatlarda ekologik tarbiya tabiat bilan bevosita aloqa, o‘yin texnologiyalari, loyiha faoliyati va kundalik hayot bilan integratsiya qilingan holda olib boriladi. AQShda “Project Learning Tree” va “Earth Education” kabi dasturlar maktabgacha ta‘limda keng qo‘llaniladi. Ushbu dasturlar orqali bolalarda ekologik savodxonlik, tabiat jarayonlarini kuzatish va ularga ongli munosabatni rivojlantirishga urg‘u beriladi. AQShda maktabgacha ta‘lim muassasalarida ekologik madaniyatni rivojlantirish alohida yo‘nalish sifatida olib boriladi: “Nature-based education” (Tabiat asosidagi ta‘lim) dasturlari bolalarni tabiat bilan bevosita aloqada bo‘lishga undaydi. Bunga misol: Forest Kindergarten (o‘rmon bog‘chalari), bu yerda darslar asosan ochiq havoda o‘tkaziladi. Bolalar hayvonlar, o‘simliklar, ob-havo hodisalari, suv va yer resurslari

haqida amaliy tajriba orqali bilim olishadi. STEM dasturlari (Science, Technology, Engineering, Math) ekologik masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan loyihaviy yondashuvni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda, ayniqsa 6–7 yosh davrida, shaxsning asosiy axloqiy, ijtimoiy va ekologik qarashlari shakllana boshlaydi. Ushbu yosh bosqichida bolalar tabiat hodisalariga qiziqish bildiradi, atrof-muhit bilan bevosita munosabatga kirishadi va kattalarning xatti-harakatlarini ongli ravishda taqlid qiladi. Shu sababli ekologik tarbiya mazkur davrda berilganda u barqaror va samarali bo‘ladi. AQShdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar orqali ekologik tarbiya berish keng qo‘llaniladi:

Markaz nomi Vazifasi

“Green Center”	O‘simliklar ekish, parvarish qilish, kompost yasash
“Water Play Station”	Suv resurslarini tejash, suv siklini tushuntirish
“Recycling Station”	Qayta ishlash, chiqindilarni ajratishni o‘rganish
“Nature Observation”	Hasharotlar, qushlar va tabiatni kuzatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lewis, C. Educating Hearts and Minds. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
2. Vygotsky, L.S. Mind in Society. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
3. Elkind, D. The Power of Play. Cambridge, MA: Da Capo Press, 2007.



4. Tobin, J. *Preschool in Three Cultures: Japan, China, and the United States*. New Haven: Yale University Press, 2009.
5. UNESCO. *Education for Sustainable Development in Early Childhood*. Paris, 2012.
6. UNESCO. *Education for Sustainable Development in Early Childhood*. Paris, 2012.
7. Piaget J. *The Moral Judgment of the Child*. London: Routledge, 1965.
8. R.R. Ismoilova. *Maktabgacha ta'limda interaktiv ekologik o'yinlar*. Toshkent, 2021.

INTERNET RESURSLARI:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz